

**“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA IBROHIM ALAYHISSALOM SIYMOSSINING  
BADIY TALQINI**

**E’zoza Hosiljonova**

*Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ibrohim alayhissalom siymosining “Lison ut-tayr” dostonidagi badiiy talqini tahlilga tortilgan. Alisher Navoiy Ibrohim alayhissalomga bag’ishlangan maqolat va hikoyat mazmunini yoritishda bevosita Qur’oni Karim va hadislarga tayanganligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maqolat, hikoyat, tahlil, talqin, obyekt, Qur’oni Karim, hadis.

**Abstract:** This article analyzes Alisher Navoi’s artistic interpretation of Ibrohim alayhissalom in the epic “Lison ut-tair”. Some comments were made regarding the direct reliance on Qur’an al-Kareem and hadiths in covering the content of article and stories dedicated to Ibrohim alayhissalom.

**Key words:** Proverb, story, analysis, object, Qur’an al-Kareem, hadith.

Ibrohim alayhissalom Qur’onda nomi zikr etilgan payg’ambarlardan biri bo’lib, o’zidan keyingi barcha payg’ambarlar, xususan, arab va yahudiylarning bobokaloni hisoblanadi. U Allohning chin do’ssti ( xalilulloh), imom (jamoat rahbari), siddiq (haqiqatgo’y) va hanif ( haqiqatni targ’ib qiluvchi) deb ta’riflanadi. Yahudiy-nasroniy diniy adabiyotlarida Avraam nomi bilan mashhur va u Bobilda tavallud topgan. Yahudiylar bilan bahslashgan, ammo ishontirolmagach, otasi va qavmlari sig’inib yurgan hamma butlarni sindirib tashlagan (“Anbiyo” surasi, 68-72-oyatlar). Qur’onda yozilishicha, Alloh Ibrohim alayhissalomga qariganda ikki farzand: Ismoil va Is’hoq alayhissalomlarni bergan. Ismoil alayhissalom Muhammad alayhissalomning katta bobosi, Is’hoq esa Iso alayhissalom va undan avval o’tgan payg’ambarlarning katta bobosidir. Ibrohim alayhissalom tushida qilingan ilhomga asosan Allohga bo’lgan chin tufayli evaziga bitta o’g’li (Ismoil)ni qurbon qilishga qaror qilgan, lekin Alloh bolaning o’rniga qo’chqor yuborib uni bu sinovdan qutqargan. Makkai mukarramada Baytulloh (Allohning uyi)ning bunyod bo’lishi, islom arkonlarining 5-farzi – haj qilish Ibrohim alayhissalomga borib taqaladi. Ka’ba yaqinidagi “Ibrohim joyi” (Ibrohim maqom) musulmonlar ziyoratgohidir. Odatda, xatna qilishni ham Ibrohim alayhissalom nomi bilan bog’lashadi. Manbalarda Ibrohim alayhissalomning 175 yil umr ko’rgani, o’g’illari tomonidan Madinatul Xalil



(Xevron, Falastin)ga dafn etilgani yozilgan. Bu qabr hozirda ziyoratgoh hisoblanadi. (Islom ensiklopediyasi, 2005, 201-bet).

Sharq adabiyotida Ibrohim alayhissalom siymosining turli badiiy talqinlari uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham mazkur siymoning o'ziga xos badiiy talqinlari mavjud. Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida Ibrohim alayhissalomning obrazi go'zal talqin etilgan. Xususan, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonining 181-bobida ushbu obraz bilan bog'liq voqealikni keltiradi. Ushbu bob “Istig'no yo'li adosida” deya nomlanib, istig'no so'zi boshqalarga muhtoj bo'lmaslik, ehtiyojsizlik degan ma'nolarni bildiradi. (Porso Shamsiyev, 1972, 285-bet). Istig'no (ehtiyosizlik) vodiysida qushlarning ehtiyojmand, Simurg'ning esa ehtiyojsizligi tasviri bayonida solikning mana shu ehtiyojsizlikni anglab yetish zamiridagi holati ifodalanadi. Bu vodiya ilohiy hikmat insoniy mantiq qonuniyatlariga mos tushmasligi, hayot jumboqlarga to'la ekanligi javobsiz ko'rinadigan jumboqlarning asosiy yechimi Yaratuvchining yaratganlariga butkul hojatsizligini anglashdir. (Sirojiddinov Sh., Yusupova, D., Davlatov O., 2020, 212-bet).

Bobga tamsil sifatida Ibrohim alayhissalom bilan bog'liq olov voqeasi keltiriladi. Ibrohim alayhissalom siymosi doston tarkibida Xalil ismi bilan ifodalanadi. Xalil – eng yaqin, sirdosh do'st degani. Qur'oni Karimda Alloh taolo Ibrohim alayhissalomni xalil etib olganligining xabari kelgan. Ibrohim – Xalilulloh Muoz ibn Anas otalaridan rivoyat qiladi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) bunday dedilar: “Men sizlarga Alloh taolo Ibrohim (alayhissalom)ni nima uchun “xalil” (do'st) degani sababini aytib beraymi? Chunki Ibrohim (alayhissalom) har tong otganda va har kun botganda: “Bas, tunga kirish paytingizda ham, tongga kirish paytingizda ham Allohga tasbeh aytingiz! Osmonlar va Yerdagi (aytilayotgan barcha) hamd Unga xosdir. Kechki paytda ham, Quyosh zavoli paytiga kirishingizda ham (Unga tasbeh aytingiz)! (Alloh) o'likdan tirikni chiqarur, tirikdan o'likni chiqarur va yerni “o'lganidan” keyin (bahorda qayta) “tiriltirur”. Sizlar ham (qiyomat kunida qabrlaringizdan) shu tarzda (xuddi giyohlar unganidek) chiqarilursiz” (Rum surasi 17–19-oyatlar) mazmunidagi duoni o'qir edi. Ibrohim (alayhissalom) barcha buyruqlarni so'zsiz bajarib, ularga itoat etgani, ibodatlarda sabr qilganini ko'rib, Alloh taolo uni “xalil” dedi va Ibrohim (alayhissalom) zurriyotlaridan payg'ambarlar chiqardi. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2020, 16-bet). Abu Xurayra roziyallohu anhunging



Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassallamni "xalilim" deyishlari u kishining ul zot sollallohu alayhi vassallamga bo'lgan cheksiz muhabbatlaridandir.

Tamsil bayonida Namrud Alloh taolo Xalilini o'tda kuydirish uchun o'z palahmonini sozlagani, tog'-tog' qilib taxlangan o'tinga olov yoqishgani va ishq ko'chasida Alloh xalili hisoblangan Xalilullohni bu o't tomon palahmonga solib otishgani, shu payt yuqoridan hukm bo'lib, uning oldiga Jabroil yetib kelib undan nima ehtiyoj sezayotganini, qanday lutf-ehson ko'rsatilishini xohlayotganini so'raydi. Shunda Xalilulloh quyidagicha javob beradi:

Dedi ulkim: o't manga ro'zi qilur,  
Ehtiyojim ne ekonni ul bilur.  
Yo'q sanga xud ehtiyojim bu nafas,  
Toki zohir aylagaymen multamas.  
Borcha holimda o'zung muhtoji qil,  
Eldin istig'no nasibim aylagil. (Alisher Navoiy, 1991, 167-bet)

Ya'ni, menga o'tni qismat etgan ehtiyojim nima ekanligini ham o'zi biladi. Hozir senga iltimos qiladigan hech qanday ehtiyojim yo'q. Barcha holatda ham O'zingga muhtoj et. Mening nasibamni kishilarga ehtiyojsiz qil, deyдилar. Ushbu javob orqali Ibrohim alayhissalom o'zlarini Alloh taologa qanchalar taslim etganliklari va ularning ehtiyojlari yagona Yaratgandan ekanligi ko'rsatiladi.

Voqea Ibrohim surasida kelgan ilohiy axborot bilan uzviy bog'liq. Ibrohim surasi 2-oyatda: Alloh osmonlar-u yerdagi narsalar uniki bo'lgan Zotdir. Kofirlar holiga shiddatli azobdan voy bo'lsin. Ya'ni Payg'ambar Robbining izni ila odamlarni olib chiqaradigan nurli yo'l sohibi Alloh osmonlar-u yerdagi narsalarning egasidir. Uning hech kimga hojati yo'q, balki hamma uning oldida hojatmanddir. Uning yo'lidagi insonlar najot topadilar, ikki dunyo saodatiga erishadilar. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2024, 244-bet). Darhaqiqat, Ibrohim alayhissalom Yaratguvchi oldida hojatmand ekanligini bilgan zot edi.

Shu'ayb ibn Jubboiyning rivoyat qilishicha, Ibrohim (alayhissalom) olovga otilganida o'n olti yoshda bo'lgan. Allohning marhamati bilan ulkan olovga tushgan Ibrohim (alayhissalom) hech qanday zarar ko'rmasdan, o't o'chgandan keyin qaytib chiqadi. Anbiyo surasi 69-oyatda: "Ey olov, Ibrohimga salqin va salomat bo'l" dedik, deya ilohiy xabar keladi. Shunda olovning kuydirish xususiyati yo'qolib, o'rniga salqinlik xususiyati keldi. Olov Ibrohim alayhissalom uchun nafaqat salqinlik, balki salomatlik ham bo'ldi.



Agar olov faqat salqinlik bo'lib qolsa, u zotga boshqa ozor yetishi mumkin edi. Lekin Allohning amri ila ham salqinlik, ham salomatlik bo'ldi. Hech bir zarar yetmadi, deyiladi. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2024, 634-bet). Marhamatli Robbimiz Ibrohim alayhissalomga ehtiyojlaridan ortig'i bilan karomat qiladi va ushbu oyat ham Xalilullohning Alloh dargohida maqomlari qay darajada yuksak bo'lganligiga yaqqol misol, deyishimiz mumkin. Ayni suraning 51-oyatida: “Batahqiq, ilgari Ibrohimga rushdi hidoyatni bergan edik. Uning holini biluvchi edik” , - deyiladi, ya'ni, Ibrohim Alloh tomonidan rushdi hidoyat berilgan zotlar ichida avvallaridan biri edi. Biz unga rushdni bexosdan berganimiz yo'q. Biz Ibrohimning rushdi hidoyatga, payg'ambar bo'lishga loyiq zotligini yaxshi bilar edik. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2024, 631-bet).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy murakkab irfoniy mavzuda yozilgan “Lison ut-tayr” dostonining “Istig'no yo'li adosida” deya nomlangan bobiga tamsil sifatida Ibrohim alayhissalom bilan bog'liq voqealikni keltirishi bejiz emas. Allohning suyaklisi Xalilulloh – Yaratganga butkul iymon keltirgan, barcha ehtiyojlarini yolg'iz Allohdan deb bilgan g'aniy zot bo'lgan. Ibrohim alayhissalomdagi ayni xulq ushbu hikoyat orqali boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. (1991). Лисон ут-тайр.(167-бет). Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
2. Ислom энциклопедияси. (2005), (201- бет). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
3. Шамсиев П. (1972) Навоий асарлари луғати. (285- бет). Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. (2020). Navoiyshunoslik. (212-bet). Toshkent: Akademnashr nashriyoti.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2020). Ҳадис ва ҳаёт 4-қисм. 16- бет). Тошкент: Ҳилол нашр.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. (2024) Тафсири ҳилол. (244-631-634- бетлар). Тошкент: Ҳилол нашр.

